

## ISPAN TILIDA SO‘ZLASHUV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODOLOGIYASI

*Tashniyozova Shoira Xolmuradovna*

*O‘zbekiston davlar jahon tillari universiteti o‘qituvchisi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ispan tilida so‘zlashuv kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishning metodologik asoslari tahlil qilinadi. Ispan tili o‘zining fonetik boyligi, grammatik shakllari va madaniy mazmuni jihatdan muloqotga yo‘naltirilgan til bo‘lgani uchun uni o‘rgatishda kommunikativ yondashuv, interfaol metodlar, vaziyatli muloqot texnikalari va multimodal vositalardan foydalanish zarurati asoslab beriladi. Mavzuda til kompetensiyalarini bosqichma-bosqich shakllantirish, real hayotiy kontekstlar bilan bog‘lash hamda madaniyatlararo muloqotni rag‘batlantirishga oid metodik tavsiyalar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** Ispan tili, so‘zlashuv kompetensiyasi, kommunikativ metodika, CLT, task-based learning, lisoniy vaziyat.

### KIRISH

Xorijiy til o‘rgatishda asosiy maqsad — tilni muloqot vositasi sifatida egallashdir. So‘zlashuv kompetensiyasi esa o‘quvchining til vositalarini real hayotiy vaziyatlarda mustaqil, samarali va to‘g‘ri qo‘llay olish salohiyatini ifodalaydi. Ayniqsa, ispan tilida bu kompetensiya til o‘rganish jarayonining markaziy tamoyilidir. Chunki ispan tili emotsionallik, ohangdorlik, bevositalik kabi xususiyatlarga ega bo‘lgan “muloqot tili”dir. Uni o‘zlashtirishda grammatik yodlash emas, balki muloqotda faol qatnashish, og‘zaki fikr bildirish, tinglash orqali tushunish, so‘zlar va ifodalarni kontekstda qo‘llash asosiy mahoratni tashkil qiladi. Shu sababli bu maqolada ispan tilida so‘zlashuv kompetensiyasini shakllantirishning metodologiyasi chuqur yoritiladi.

### ASOSIY QISM

So‘zlashuv kompetensiyasi CEFR (Common European Framework of Reference) tizimiga ko‘ra til o‘rganishda A1 bosqichidan C2 darajagacha shakllantirilib boriladi. Har bir bosqichda talaba quyidagi asosiy ko‘nikmalarni egallashi lozim [1]:

A1–A2: Oddiy salomlashuv, o‘zini tanishtirish, kundalik so‘zlar bilan muloqot.

B1–B2: Fikr bildirish, tavsiya qilish, oddiy bahs-munozaralarda ishtirok etish.

C1–C2: Murakkab mavzular bo‘yicha nutq yuritish, madaniy-nutqiy ohangni his qilish, ironiyani anglash.

Bu bosqichlarning har birida so‘zlashuv kompetensiyasini rivojlantirishda kommunikativ metodika yetakchi o‘rinni egallaydi. Bu metodika o‘quvchini

grammatik to‘g‘riligidan ko‘ra tilni kommunikatsiya vositasi sifatida ishlatishga undaydi. Masalan, CLT (Communicative Language Teaching) modeli asosida darsda “¿Dónde está la estación más cercana?” (Eng yaqin bekat qayerda?) kabi savollar ustida ishlanadi. Bu faqat grammatik nuqtai nazardan emas, balki real hayotdagi muloqot modeli sifatida o‘rganiladi [2].

Yana bir samarali metod – bu “task-based learning” (vazifaga asoslangan o‘qitish) bo‘lib, bunda o‘quvchilarga aniq topshiriqlar beriladi. Masalan, talabalarga “Ispan restoranida buyurtma berish” ssenariysi asosida mashq topshiriladi. Ularga menyu, narxlar, xizmat ko‘rsatish jarayoni haqida ma‘lumot berilib, quyidagi dialog modeli ishlab chiqiladi:

- Mesero (ofitsiant): Buenas tardes, ¿qué le gustaría pedir?
- Cliente (mijoz): Me gustaría una paella y un jugo de naranja, por favor.
- Mesero: Perfecto. ¿Algo más?
- Cliente: No, eso es todo. Gracias.

Bunday mashqlar tilni real kontekstda qo‘llashga yordam beradi va so‘zlashuv kompetensiyasini tabiiy ravishda rivojlantiradi.

Shuningdek, interfaol metodlardan – “rol o‘ynash”, “intervyu olish”, “guruhiy muhokama”, “dialogni davom ettirish” kabi usullardan foydalanish ham o‘ta samaralidir. Masalan, talabalar juftlikka bo‘linib, “Sayohat agentligiga murojaat” mavzusida quyidagi topshiriq ustida ishlashadi [3]:

“Siz Ispaniyada sayyohsiz. Hamrohingiz bilan Madridda mehmonxona izlayapsiz. Agentlik xodimi rolini bajaring va narx, joylashuv, qulayliklar haqida ispan tilida so‘rashingiz kerak.”

Bu metodlar so‘zlashuv kompetensiyasining moslashuvchanligi, vaziyatga tez javob qaytarish qobiliyati, ifoda uslublarining xilma-xilligi kabi tarkibiy qismlarini shakllantiradi.

Alohida ta‘kidlash joizki, madaniyatlararo muloqot ham so‘zlashuv kompetensiyasining ajralmas qismidir. Ispan tilida “usted” va “tú” zamirlarining ishlatilishi, muloyimlik darajasi, intonatsiyaning ma‘no o‘zgarishiga ta’siri — bularning barchasi til bilan birga madaniyatni ham o‘rganishni taqozo etadi. Shu bois, talabalarga videoroliklar, hisobotlar, ijtimoiy tarmoq postlari orqali ispan tilida muloqot madaniyatini tahlil qilish topshiriqlari berilishi zarur.

Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar ham bu borada katta yordam beradi. Duolingo, Babbel, Memrise, Rosetta Stone kabi ilovalar orqali so‘z boyligi, talaffuz, real dialoglarda ishtirok etish ko‘nikmalari mustahkamlanadi. Ular orqali “gapirib ko‘r”, “tingla va qaytar” kabi mashqlar so‘zlashuv kompetensiyasining psixomotor mexanizmlarini rivojlantiradi [4].

### **XULOSA VA MUNOZARA**

Ispan tilida soʻzlashuv kompetensiyasini rivojlantirish – bu faqat grammatikani oʻrganish emas, balki muloqot muhitini yaratish, real vaziyatlarda fikr bildirish, madaniyatni anglash va nutqni ongli ravishda boshqarish jarayonidir. Bu kompetensiyani shakllantirishda kommunikativ metodlar, task-based yondashuv, interfaol oʻyinlar va zamonaviy platformalardan foydalanish zarur. Har bir mashgʻulot talabaning til bilan ishlashini emas, til bilan yashashini taʼminlashi lozim. Shundagina oʻquvchilar ispan tilini oʻzining ikkinchi tili sifatida qabul qiladi va uni hayotda bimalol qoʻllay oladi.

### **ADABIYOTLAR ROʻYXATI**

1. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2001). Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press.
2. Council of Europe. (2020). Common European Framework of Reference for Languages (CEFR). Strasbourg.
3. Xoliqova, S. (2022). Chet tillarni oʻqitishda zamonaviy yondashuvlar. Toshkent: Innovatsiya nashriyoti.
4. García, O. (2010). Bilingual Education in the 21st Century: A Global Perspective. Wiley-Blackwell.